



O'SIMLIKLAR TARKIBIDAGI ELEMENTLAR VA ULARNING KIMYOVIY TAHLILI

Sharipova Nasiba O'ktamovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti «Kimyo» kafedrası assistenti

E-mail: sharipova5113@gmail.com Tel:91-407-51-13

Annotasiya: Maqolada yurtimizda o'sadigan dorivor o'simliklar va ular tarkibidagi kimyoviy elementlar, ularning odam organizmidagi roli, fizik-kimyoviy xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Dorivor o'simliklar, flora, kaliy, natriy, yod, koriandr, kachnich, rayhon, arpabodiyon, klever, yalpiz.

Mamlakatimizning boy o'simliklar dunyosida o'n mingga yaqin turli xil o'simliklar mavjud bo'lib, ular ichida dorivor g'iyohlar ham bor. Bunday o'tlar ekologik jihatdan qulay bo'lib, oziq-ovqat, aromatik va farmatevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatiladi.

O'zbekiston florasida cho'l va dashtlar, tog'lar va tog' etaklari, tekisliklar va daryo sohillari muhim o'rin tutadi. Respublikamizda eng ko'p tarqalgan dorivor o'simliklardan rayhon (rayhon), kashnich (koriandr), arpabodiyon, yalpiz, klever o'simliklari keng tarqalgan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti an'anaviy tibbiyotda o'simliklar bilan davolash (fitoterapiya) va tabiiy o'simlik-g'iyohlar vositasida davolash, akupunktur va manual terapiya kabi davolash usullari mavjud bo'lib, hozirgi kunda an'anaviy xalq tabobati allaqachon dunyoning bir qator mamlakatlarida, ayniqsa, O'rta Osiyo mamlakatlarida keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda xalq tabobati Abu Ali ibn Sino davridan boshlangan bo'lib, hozirgi kungacha xalq orasida davom etib kelmoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 10-aprelda qabul qilingan "Yovvoyi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy o'stirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu borada o'z vaqtida qabul qilindi. Mazkur qarorda dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ushbu sohada ta'lim, fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalashuvi uchun muhofaza qilish, plantatsiyalar qurish zarurligi belgilangan. 2020-yil 1-maydan dorivor o'simliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash klasterlarini tashkil etish, shuningdek, hududlarni dorivor o'simliklarni yetishtirishga ixtisoslashtirish belgilandi. Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan klaster tizimi yengil va oziq-ovqat sanoatining kuchli rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Klasterlar oldiga dorivor o'simliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi va chuqur qayta ishlash hamda tayyor mahsulotni sotish bo'yicha belgilangan vazifalar sanoatning "Dorivor o'simliklar" tarmog'ini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shdi.



2020-yildan boshlab qishloqlardagi oilaviy poliklinikalar, barcha vazirlik va idoralarda, aeroport va avtovokzallarda fitobarlar tashkil etildi. Shunday qilib, fitobarlarni yaratish orqali an'anaviy xalq tabobatining (choylar, kokteyllar, infuziyalar va boshqalar) rivojlanishi va sog'liq uchun foydaliligi hamda, yaxshi biznes manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Fanlar akademiyasi institutlariga dorivor o'simliklar yetishtirishning ilmiy asoslarini, o'simlik xomashyosini chuqur qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan birgalikda o'simliklarni o'rganish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish katta vazifa qilib, yuklatilgan.

Xalqimiz sevib iste'mol qiladigan kashnich o'simligini tahlil qiladigan bo'lsak, uning takibidagi efir yog'lari, vitaminlar va antioksidantlar yurak-qon-tomir tizimi faoliyatini yaxshilaydi. Kashnichning barglarida kaliy va natriy tuzlari, oqsillar, B1, B2, C, P, A vitaminlar mavjud. Urug'ida 0,2— 1,4% efir moyi va 16—28% texnik moylarning borligi gipertoniya, arterial qon bosimi va yurak qisqarishi kabi kasalliklarni nazorat qiladi. Kaliy va natriy elementlarining organizmdagi vazifalaridan yana biri qondagi qand miqdorini me'yorlashtirishdir.

Kashnich ko'ngil aynishini qoldirib, oshqozon va ichakdagi fermentlarni faollashtirishga yordam beradi. Qorin dam bo'lishini kamaytiradi. U organizmdagi har xil toksinlar va og'ir metallarni quvishga qodir.

Kashnichdan mikroblarga qarshi kurashda, bundan tashqari, og'iz bo'shlig'i gigiyenasi, milklar yallig'lanishida samarali foydalanish mumkin. Kashnich erkin radikallar darajasini tushiradi, surunkali yallig'lanish va saraton xavfini kamaytiradi, qarish jarayonini sekinlashtiradi, mushaklarni va asab tizimini bo'shashtirib, tinchlantiradi. Tarkibidagi magniy va B vitaminlarining ko'pligi sabab stressning oldini oladi.

Inson organizmida kaliy elementining kunlik miqdori 3000- 5000 mgni tashkil qiladi. Kaliy hujayra devorlarini normal ishlashini, organizmni kislorod bilan to'yinishini ta'minlaydi. Kaliy, natriy xlorid va bikarbonat, tanadagi kislotalik xossasini oshirib osmotik bosimni, mushaklar qisqarishi, asab impulslari, yurak-qon tomir tizimining normal ishlashi uchun juda muhim bo'lib, yurakning ritmini tartibga soladi, tushkunlik, charchoq, asabiylashishni nazorat qiladi.

Qandli diabet va diareya paytida kaliy yetishmovchiligi kuzatiladi. Kaliy yetishmovchiligida jismoniy va hissiy zo'riqish kuzatiladi.

Kaliy go'sht, baliq, tovuq go'shtlarida, sut va sut mahsulotlarida, sabzavotlar orasida avakado, o'rik, kashnich, banan, pomidor sharbati, kungaboqar urug'i, bodom va boshqa yong'oqlar tarkibida ko'p uchraydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki dorivor o'simliklarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish botaniklar, farmakologlar, kimyogarlar, biokimyogarlar, texnologlar, resursshunoslar va boshqa mutaxassislar tomonidan har tomonlama o'rganish vazifasi hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, o'simlik dunyosini



muhofaza qilish uchun uni har tomonlama – strukturaviy, funksional, taksonomik va evolyutsion jihatdan yaxshi o'rganish muhimdir.

Shunday qilib, qabul qilingan qaror mamlakatimizda qimmatbaho dorivor o'simliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq fan, tadbirkorlik, xalq tabobati, farmatsevtika ishlab chiqarish imkoniyatlarini tartibga soladi.

ADABIYOTLAR:

1. Садикова М. И. СВЕРХКРИТИЧЕСКАЯ ХРОМАТОГРАФИЯ (СКФХ) ЭКСТРАКТОВ ЦВЕТКОВ ДЖИДЫ И ЛИСТЬЕВ ЩЕЛКОВИЦЫ //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 5-1 (95). – С. 62-64.

2. Атоев Э. Х., Бердиева З. М. Изучение устойчивости комплексных соединений металлов с некоторыми фосфорорганическими лигандами //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 10-2 (88). – С. 6-8.

3. Рузиева К. Э., Мухамадиев Б. Т. МЕТОД ОБНАРУЖЕНИЯ, КЛАССИФИКАЦИИ И НУМЕРАЦИИ ПАТОГЕНОВ И ИХ ТОКСИНОВ В ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТАХ //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 3-1 (81). – С. 58-62.

4. Muhiddinova B. Z. Functions and forms of chemical experiment //European science review. – 2020. – №. 1-2. – С. 48-50.

5. Атоев Э. Х., Рузиева К. Э. Термоаналитическое исследование термических превращений аморфного гидроксида железа //Universum: химия и биология. – 2019. – №. 11-2 (65). – С. 35-38.

5. Temirovich M. B., O'ktamovna S. N. Polymers And Fluid Carbon Dioxide //The Peerian Journal. – 2022. – Т. 13. – С. 33-37.

6. Рузиева К. Э., Мухамадиев Б. Т. Инновационные технологии криосепарации и криосублимации //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 11-2 (77). – С. 41-43.

7. Akhmedov V., Jumaev J., Sharipova N. INFLUENCE OF THE NATURE AND QUANTITY OF THE CATALYST ON THE SYNTHESIS OF MORPHOLINE UNSATURATED PRODUCTS WITH THE PARTICIPATION OF VINYL ACETYLENE //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 58-61.

8. Жумаев Ж. Х., Шарипова Н. У. ВЛИЯНИЕ РАСТВОРИТЕЛЕЙ НА ПРОЦЕСС ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МОРФОЛИНА С ВИНИЛАЦЕТИЛЕНОМ //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 11-2. – С. 4-7.

9. Шарипова Н. У. Химическая промышленность и окружающая среда //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 5-1 (95). – С. 19-21.

10. Мухамадиев Б. Т., Шарипова Н. У. Нетепловые механизмы действия электромагнитного поля (ЭМП) низких частот (нч) на растительное сырье //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 6 (72). – С. 89-91.



11. Жумаев Ж. Х., Шарипова Н. У. Структурно-механические характеристики композиций на основе электрохимического модифицированного крахмала и полимеров //Universum: химия и биология. – 2019. – №. 11-1 (65). – С. 74-76.
12. Шарипова Н. У., Мухамадиев Б. Т., Шарипова Н. У. ХРАНЕНИЕ, ТРАНСПОРТИРОВКА И РЕАЛИЗАЦИЯ КРИО ИЗМЕЛЬЧЕННЫХ И ЗАМОРОЖЕННЫХ ПРОДУКТОВ РАСТИТЕЛЬНОГО ПРОИСХОЖДЕНИЯ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 2-2 (83). – С. 100-103.
13. Бердиева З. М., Мухамадиев Б. Т. Безопасность функциональных пищевых продуктов (ФПП) //Безопасность. – 2022. – Т. 95. – №. 2.
14. Бердиева З. М., Касимова Ш. А. ВЛИЯНИЕ ГЛИЦИРРИЗИНОВОЙ КИСЛОТЫ, ГЛАБРИДИНА И РЕСВЕРАТРОЛА НА РЕПЛИКАЦИЮ SARS-КОРОНАВИРУСА //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 7-1 (85). – С. 52-54.
15. Бердиева З. М., Жахонов Ж., Мирзаев А. АНАЛИЗ РАСТИТЕЛЬНОГО ПОЛИФЕНОЛА //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 284-287.
16. Бердиева З. М. ЮҚОРИ ТАРКИБЛИ ТРАНС-РЕСВЕРАТРОЛ САҚЛАГАН ҚОРА ТУТ ТАБИЙ ХОМАШЁ СИФАТИДА //PEDAGOGS journali. – 2022. – Т. 22. – №. 2. – С. 8-12.
17. Садикова М. И., Мухамадиев Б. Т. Использование плодовоовощных криопорошков в пищевой технологии //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 4. – С. 46-49.
18. Садикова М. И., Шухратовна Қ. С. КООРДИНАЦИОН БИРИКМАЛАР НАЗАРИЯСИ //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 17. – С. 63-67.
19. Адизова Н. З. МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УПАКОВКИ ПИЩЕВЫХ ПРОЦЕССОВ //Universum: технические науки. – 2022. – №. 1-2 (94). – С. 63-65.
20. Juraeva L. R., Qurbonova S. S. Separation Of Mononuclear Arenes in The Deg+ DmsO System //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – Т. 11. – С. 53-57.
21. Шарипова Н. У., Мухамадиев Б. Т., Шарипова Н. У. ХРАНЕНИЕ, ТРАНСПОРТИРОВКА И РЕАЛИЗАЦИЯ КРИО ИЗМЕЛЬЧЕННЫХ И ЗАМОРОЖЕННЫХ ПРОДУКТОВ РАСТИТЕЛЬНОГО ПРОИСХОЖДЕНИЯ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 2-2 (83). – С. 100-103.
22. Атоев Э. Х. Исследование диффузии ацетона в смеси диацетата целлюлозы с поли-2-метил-5-винилпиридином методом сорбции //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 2 (68). – С. 91-94.
23. Атоев Э. Х. ЭЛЕКТРОННОЕ СТРОЕНИЕ АНТИПИРИНА С И ЕГО КОМПЛЕКСОВ С ЛАНТАНОМ //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 108-110.



24. Атоев Э. Х. СОВРЕМЕННЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О МЕХАНИЗМЕ ОБРАЗОВАНИЯ СОЕДИНЕНИЯ С АНТИПИРИНОМ И ЕГО ПРОИЗВОДНЫМИ //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 10-2 (88). – С. 42-43.

25. Атоев Э. Х. ИССЛЕДОВАНИЕ РЕАКЦИЙ О, О-ДИОКСИАЗОСОЕДИНЕНИЙ //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 9-2 (99). – С. 35-37.